



## TAFSIR VA UNING TURLARI HAQIDA

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Islomshunoslik fakulteti Dinshunoslik yo‘nalishi*

*2-bosqich talabasi **Omonova Ma‘mura***

***Annotatsiya:** Ushbu maqola tafsir ilmining mohiyati, unga berilgan ta’riflar, tafsir ilmining kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonidaga ko‘ra qismlarga bo‘linishi haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** tafsir, ta’vil, Qur’on, “Tafsir bil-masur”, “Tafsir bid-Diroya”, “Tafsir bir-ra’y”, “Tafsiri ishoriy”.*

Tafsir (arabchadan — “sharh”, “tushuntirish”, “ochib berish”, “izoh”) — islom an’anasiga asosan Qur’on oyatlarini sharhlash, tushuntirib berish. Qur’on oyatlarini tafsir qilish Muhammad sollallohu alayhi va sallam davrida vujudga kelib, bu ilm Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan sahobalarga, sahobalardan tobe’inlarga meros qoldi. Sahobalar va tobe’inlar asrida tafsir og‘zaki rivoyat va naql shaklida bo‘lib, ta’lif qilib yozilmagan. Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Abbas, Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhum va boshqa mashhur tafsirchi sahobalar bo‘lgan.

“Bu ummatning dengizi va buyuk din olimi” degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan Abdulloh ibn Abbas roziyallohu anhu Qur’oni Karimni tafsir va ta’vil qilishda o‘z davrining har qanday vakilidan oldinlab ketib, peshqadam bo‘lgan va “Qur’on tarjimoni” degan nom bilan shuhrat qozongan.

Tafsir ilmining istilohlari borasida turli fikrlar bo‘lgani kabi ushbu ilm doirasida o‘rganilgan mavzularda ham o‘tmishda va hozirda turlilikni kuzatish mumkin. Masalan, ba’zi olimlar tafsirning ayrim mavzularini tahlil qilgan bo‘lsalar, boshqalari Qur’on ilmlariga oid ko‘pgina masalalarga to‘xtalganlar yoki



tafsir qoidalarini ham yoritganlar. Shu tarzda olimning maqsadidan kelib chiqib, sohaga oid turli darajadagi kitoblar yozilgan. Jumladan, zamonaviy mufassir olim Fahd ar-Rumiy “Buhus fi usulit tafsir va manohijih” kitobida tafsir ilmining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, tadvin davri<sup>1</sup>, Qur’ondagi e’roblar<sup>2</sup>, g‘arib va kamdan kam uchraydigan so‘zlar, mufassir bilishi zarur bo‘lgan ilmlar, usul va ko‘rinishlari kabilarga to‘xtalgan.

“Tafsir shunday ilmki, bu bilan Qur'on lafzlarining qanday nutq qilinishini (qiroat ilmi), u so‘zlar nimaga dalolat qilishini (lug‘at ilmi), har bir so‘z va jumlaning hukmlarini (sarf, nahv, bayon va badiy ilmlari), jumlaning o‘zidan bevosita tushuniladigan ma'nolarni (haqiqat va majoz ilmi), shuningdek, nosix va mansux oyatlar, oyatlarning nozil bo‘lish sabablari hamda tarixiy qissalardan ko‘zlangan maqsadlar o‘rganiladi”<sup>3</sup> — deya ta’riflaydi Abu Hayyon.

Imom Az-Zarkashiy bunday ta'rif beradi: "Tafsir shunday ilmki, bu bilan Alloh Ta'oloning o‘z payg‘ambari Muhammad (s.a.v.)ga nozil qilgan Kitobini, uning ma'nolarini, shari'at amallarini va bandalar ustidan Allohning hukmlarini o‘rganiladi."

Yana ba'zilarning so‘zlariga qaraganda, "Tafsir oyatlarning nozil bo‘lishi, uning sabablari, qissalar, Makkada nozil bo‘lgan oyatlar bilan Madinada nozil bo‘lgan oyatlarning tartibi, muhkam (ma'nosi aniq) va mutashobeh (ta'vilga muhtoj)ligi, nosix (hukmni bekor qiluvchi) va mansux (hukmi bekor qilingan)ligi, xususiyli va umumiyli, mutlaqi va muqayyadi, mujmali va mufassari, halol haqidagi va harom haqidagi, va'da va va'id, amr va nahiy hamda ibratli oyatlarni o‘rgatmoqdir"

<sup>1</sup> Tadvin davrida kitoblar yozilishi boshlangan va ko‘plab asarlar bitilgan davrga aytiladi. Taxminan hijriy uchinchi asrlardan boshlangan.

<sup>2</sup> E’rob arab tili nahv (sintaksis) ilmiga taalluqli atama bo‘lib, unda jumladagi so‘zlarning oxirgi harakatlari: fatha, kassra, damma bo‘lishi o‘rganiladi. Bu bilan ushbu so‘zlarning gapning birinchi yoki ikkinchi bo‘laklari – gapning egasi (mubdtado yoki foil), kesimi (xabar) yoki ikkinchi gap bo‘laklari sanalgan to‘ldiruvchi (maf’ul), hol kabilari aniqlanadi.

<sup>3</sup> Abu Hayyon. Al-Bahrul-muhit kitobi. 1-jild. 13-14-betlar



Shunday qilib, mufassir to Qur’oni Karimni to‘liq tafsir qilguncha boshqa necha-necha kitoblarga murojaat qiladi. Natijada bu jarayon so‘ngida uning o‘zi ham ilmda yetuklik darajasiga yetadi. Ilmda qadami sobit bo‘lgan, Alloh taolo “**Ilmda sobitqadam bo‘lganlar esa ...**” (Oli Imron surasi: 7-oyat), deya sifatlagan zotlar qatoriga qo‘shiladi.<sup>4</sup>

Tafsir ilmi insonni tom ma’noda olim qiladigan va dindagi boshqa barcha ilmlarni ham egallashiga turtki bo‘ladigan ilmdir. Imom Ibn Abdul Barr rohimahullohning quyidagi so‘zlari ham so‘zimizning yorqin dalilidir. U kishi shunday deydilar: “Ilmning avvali Allohning kalomini hifz qilib, Uning ma’nolarini tushunmoqdir. Allohning kitobini fahmlashga yordam beradigan boshqa barcha narsalar ham shu ilm qatorida vojibdir”<sup>5</sup>.

Shuning uchun ham tarix va bugungi kunimizga nazar solsak, Qur’oni Karimni tafsir qilgan olimlar boshqa ilmlarda ham peshqadam bo‘lganliklarining guvohi bo‘lamiz. Misol tariqasida, ma’sur yo‘nalishdagi tafsir sohasida birinchilardan bo‘lib mukammal kitob tasnif etgan zot, mufassirlar peshvosi bo‘lmish Imom Tabariy rohimahullohni oladigan bo‘lsak, muarrixlar u kishini o‘z asrining biror kishisi teng kela olmaydigan ilm sohibi bo‘lganligini qayd etadilar. U zot tafsir, hadis, fiqh, tarix va bir qancha ilmlarning bilimdoni edilar. Va ham hofizi Kalomulloh edilar. Qur’on oyatlarining ma’nolarini daqiq joylarigacha tushungan, Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini biluvchi, uning sog‘lom va zaifi, nosix va mansuxini ajratuvchi olim edilar. Bundan tashqari sahobalar va tobeinlardan va ulardan keyingi ulamolardan eshitilgan rivoyatlarni va ular o‘rtasidagi hukmlardagi muxoliflarni ham biluvchi kishi edilar. Abul-Abbos ibn Surayj rohimahulloh aytadilar: “Muhammad ibni Jarir faqih olimdir . Imom Tabariy rohimahulloh tafsir ilmida “Tafsir ilmining otasi” degan nomga sazovor bo‘lganlar. Xuddi shuningdek tarix ilmida ham ushbu buyuk nomning egasidirlar.”

<sup>4</sup>Qur’oni karim ma’nolari va tarjimalari Abdulaziz Mansur Qur’oni karim ma’nolari va tarjimalari 2009 yil (“ Oli Imron, 7-oyat)

<sup>5</sup> Hidoya.uz



Tafsir fani nimani o‘rganadi?

“Tafsir — oyatlarning nozil bo‘lishi va ular haqidagi xususiyatlar, qissalar, ularning nozil bo‘lish sabablari hamda oyatlarning Makkiy va Madaniysi, muhkam va mutashobihi, nosix va mansuxi, mutloq va muqoyyadi, mujmal va mufassali, halol va haromi, va’d va va’iydi, amr va nahiysini va shunga o‘xshash ilmlarni o‘rganuvchi ilmdir” - deya ta’riflagan Imom Jaloliddin As-Suyutiy<sup>6</sup>

Yana bir manbaada shunday keltiriladi: “Tafsir – Muhammad ﷺ ga nozil qilingan Allohning kitobini tushunishlik, uni ma’nolarini bayon qilish, ahkom va hikmatlarini chiqarish ushbu ilm orqali bo‘lib, mazkur narsalar sababi nuzul, nosix va masuxini bilish bilan bir qatorda lug‘at, nahv, sarf, ilm ul bayon, usul-ul fiqh va qiroat ilmlari orqali o‘zlashtiriladi”. Imom Zarkashiy (“Al-Burxon”)

Tafsir ilmi kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonida bir necha qismlarga bo‘lingan.

1- "Tafsir bir-rivoya" yoki “Tafsir bil-masur” deyiladi.

2-"Tafsir bid-Dirayo", yoki “Tafsir bir-ra’y” deyiladi.

3-Tafsir bil-ishoriy: Ulamolar “Tafsiri ishoriy” deb atashadi:

“**Ma’sur**” rivoyatiga ko‘ra tafsir bu Qur'on yoki oyat yoki sahobalarning so‘zlari bilan Alloh taoloning irodasiga oydinlik kiritish sifatida bayon qilingan tafsirdir. Unda Qur'onni Qur'on bilan, Payg‘ambar sunnati (hadislari)ga ko‘ra tafsir qilinadi yoki Qur'onni sahobalar so‘zlari bilan tafsir qilinadi.

Ushbu turda yozilgan tafsirlar:

1. "Jomiul bayon fi tafsiril quron" (Tafsiri Tabariy) Muhammad ibn Jarir Tabariy (310-h)

2. "Bahr-ul ulum" (Tafsiri Samarqandiy) Nasr ibn Muhammad Samarqandiy (373-h)

3. "Al-kashfu val-bayon" (Tafsiri Sa‘labiy) Ahmad ibn Ibrohim Sa‘labiy Naysoburiy

<sup>6</sup> Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum-al Qur'an. – Bayrut: Muassasatu rissalati nashiruna, 2008



4. "Tafsiri Qur'on karim" (Tafsiri Ibn Kasir) Ismoil ibn Umr Dimashqiy (774-h)

5. "Ad-durrul mansur fit tafsiri bil ma'sur" (Tafsiri Suyutiy) Jaloliddin Suyutiy (911-h)

“**Tafsir bir-ray**” yoki tafsiri ma'qulda mufassir Qur'onni tafsir qilishda sahoba va tobeinlardan naql qilingan asarlarga emas, balki o'z ijti hodiga suyanadi va unda arab tili va undagi sarf, nahv, ulumul balog'a, usulul fiqh hamda oyatlarni nozil bo'lish sabablariga asoslanib tafsir qiladi.

Ushbu turda yozilgan tafsirlar:

1. "Mafotihul g'ayb" (Tafsiri Roziy) Muhammad ibn Umar ibn Husayn Roziy (606-h)

2. "Anvorut tanzil va asrorut ta'vil" (Tafsiri Bayzoviy) Abdulloh ibn Umar Bayzoviy (685-h)

3. "Lubobut Ta'vil fi maonit tanzil" (Tafsiri Xozin) Abdulloh ibn Muhammad (741-h)

4. "Tafsiri Jalolayn" Jaloliddin Mahalliy (864-h), Jaloliddin Suyutiy (911-h)

“**Tafsir Ishoriy**” ning ma'nosi shuki, ba'zi bir ilm ahliga yoki Alloh qalbini munavvar qilgan suluk egalariga zohir bo'ladigan yashirin ishoralar sababli Qur'onning zohiriy ma'nosiga xilofdek ko'ringan botiniy manoli Qur'onning ta'vilidir.

Mufassir oyatning zohiriy ma'nosidan boshqa ma'noni ko'radi, lekin u har bir insonga ko'rinmaydi, balki Alloh uning qalbini ochgan, idrokini yoritgan va uni hidoyat qilgan zotga ko'rinadi.

Ushbu turda yozilgan tafsirlar:

1. "Tafsiri Qur'on Karim" (Tafsiri Tustariy) Sahl ibn Abdulloh Tustariy

2. "Haqoiqut tafsir" (Tafsiri Sulamiy) Abu Abdurrohman Sulamiy

3. "Tafsiri Ibn Arabiy" Muhyiddin ibn Arabiy



Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, bu ilm Alloh taoloning Kalomini chuqur tatbiq qiluvchi fandır.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tafsiir ilmiga kirish. Maxsudov D.R. -O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: “Qaqnus” nashriyoti, 2019.
2. Abu Hayyon “Al-Bahrul-muhit” kitobi. 1-jild. 13-14-betlar
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sano standart, 2021.
4. Jaloliddin Suyutiy. Al-Itqon fi ulum-al Qur'an. – Bayrut: Muassasatu rissalati nashiruna, 2008
5. <https://hidoya.uz>